



MUDDATLI HARBIY XIZMATCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Latipov Farhod Samiyevich,

Oriental universiteti, psixologiya kafedrası,

70310901 – Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi
bo'yicha 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19313597>

ARTICLE INFO

Received: 1st March 2026

Accepted: 5th March 2026

Published: 29th March 2026

KEYWORDS

shaxslararo munosabatlar,
muloqot, qobiliyat, kompetensiya,
psixologik yondashuv, shaxsiy
rivojlarinish, harbiy jamoa.

ABSTRACT

Ushbu maqolada muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, yo'nalishlari, bunga ta'sir etuvchi omillar, yuzaga keladigan vaziyatlar va ularning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Kirish. Ma'lumki, harbiy soha vakillarining kasbiy faoliyati ko'plab nostandart vaziyatlar bilan bog'liq ya'ni qattiq intizom sharoitida xizmat olib borish, doimiy vaqtning belgilanganligi, shaxslararo muloqot va yaqinlar bilan aloqalarning chegaralanganligi, harbiy qurollardan foydalangan holda murakkab vazifalarni bajarish, yuqori darajadagi vazifalar, noqulay iqlim sharoitida xizmat majburiyatlarini bajarish va oiladan uzoq muddatli uzilish va hokazo. Yuqorida qayd etilgan vaziyatlarda noxushliklarni oldini olishda har bir harbiy xizmatchi faoliyatida shaxslararo munosabatlarning o'rni muhim hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlar jarayoni shunday zaruratki, biror bir faoliyatni ushbu qobiliyatlarsiz tasavvur etish mushkul sanaladi. Inson qaysi bir sohada yoki kasbda bo'lmasin albatta, o'zaro ta'sirlashuv hamda muloqot qilish usullariga ehtiyoj sezadi. Bundan tashqari, jamiyatda shunday kasblar borki, ular ekstremal sharoitlarda ishlash vazifalarini o'z bo'yniga olishgan. Muddatli harbiy xizmatchilar nafaqat maxsus bilim va ko'nikmalarga balki, ko'plab psixologik kompetensiyalarga ega bo'lishlari shart sanaladi. Shaxslararo munosabatlarga bo'lgan qobiliyat, ana shunday zaruriy shartlardan biri.

Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning dolzarbligi: Respublikamizda so'ngi yillarda milliy armiyamizni kompleks isloh qilish, uning tarkibiy tuzilmalarini optimallashtirish, quyi bo'g'in bo'linmalari, jumladan muddatli harbiy xizmatchilarni xizmat natijadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmogda. Bu borada «... harbiy xizmatchilarning intellektual va kasbiy salohiyati, ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilash talab etiladi...»¹ ustuvor vazifa etib belgilab berildi. Ushbu vaziflarni ijrosini ta'minlash uchun harbiy xizmat faoliyatini yanada optimallashtirish yuzasidan psixologik tadqiqolarni amalga oshirish bo'yicha zarurat tug'ilmogda.

¹ 2022—2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида». Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

Adabiyotlar tahlili. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari uchun ahamiyatli bo'lgan masalalar bo'yicha ko'plab psixolog olimlarimiz tadqiqot olib borishgan. Ular jumlasiga, E.G.G'oziyev, D.G.Muxamedova, V.M.Karimova, I.I.Mahmudov, R.N.Boymurodov, O.E.Haitov, B.N.Sirliyev, X.A.Ruxiyeva, G'.A.Normurodov, Ye.Yu.Agzamova, I.X.Arifxodjayeva, I.R.Ergashev, S.U.Yakubov va boshqa olimlarni kiritish mumkin².

Tadqiqotning maqsadi. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash va uning o'ziga xos omillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni psixologik fenomen sifatida asoslash; muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shakllanishida xarakter aksentuasiyasining ahamiyatini ochib berish, xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazidagi 90 nafar muddatli harbiy xizmatchilar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar va uning psixologik xususiyatlariga ta'sir etish omillarini tadqiq etish jarayoni tashkil etadi.

Nazariy qism. Muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar avallambor, birgalikda bajaradigan mashg'ulotlarda, harbiy xizmat bilan bog'liq amalga oshiriladigan turli tadbirlarda hamda bir qator guruhviy munosabatlar majmui bilan tavsiflanadi"³. Shu bois, muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarning uch yo'nalishda rivojlanadi, ya'ni:

birinchidan, muddatli harbiy xizmatchilar va uning safdoshlari;
ikkinchidan, muddatli harbiy xizmatchilar va uning komandirlari;
uchinchidan, muddatli harbiy xizmatchilar va oila-a'zolari.

Ma'lumki, muddatli harbiy xizmatchilarda faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi yoki kasbiy faoliyatini yangidan boshlashlari bilan muloqot foni o'zgaradi, muddatli harbiy xizmatchilarda yangi ehtiyojlar, motivlar, aloqa vositalari paydo bo'ladi, shu munosabat bilan muddatli harbiy xizmatchilarda o'zi qabul qilingan yangi muhitni yoki jamiyatini afzal ko'rishni boshlaydilar. Bu esa, ularning o'zlari haqida barqaror tasavvur shakllanishi va o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi o'ziga xos "Men-konsepsiya"ning shakllanishi bilan bog'liqdir. Ko'plab tadqiqotchilarning aytishicha, bu shakllanish tezda amalga oshadigan jarayon emas, buning uchun ma'lum darajada vaqt hamda muddatli harbiy xizmatchilarning o'sha yangi muhit yoki yangi kasbiy majburiyatlarga qanchalik moslashishi va atrof-muhitning qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishiga bevosita bog'liq. Ular yangi faoliyat turiga, yangi ijtimoiy rolga, yangi yuklangan vazifalarga ko'nikadilar, yangi muhitga, yangi jamoaga moslasha boradilar. muddatli harbiy xizmatchilar shaxslararo munosabatlar

²Газиев Э.Г.Социал психология. Учебние и методические пособия, Учебники, Наука и образование.Т., 2012. – С.78; Мухамедова Д.Г. Менеджмент в образовании: аспекти содержания подготовки кадров // Педагогик таълим, 2013. №3. – С.17-21; В.М.Каримова Социальная психология: Учебник для вузов // Автор: В.М.Каримова. – Т., 2012. – С.19; Махмудов И.И. Бошқарув психологияси. Ўқув Т.: ДЖКА «Рахбар» маркази; «YUNAKS-PRINT» МЧЖ, 2006. – Б.38; Сирлиев Б.Н., Турсунова О.А. Психология предварительного следствия. Курс лекций. - Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2017.–С.78; Курс лекций. - Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 2017. – С.145; Рухиева Х.А. Суд психологик экспертизаси. Тошкент, 2012. – Б.39; Нормуродов Г.А. Гумон қилинаётган вояга етмаган усмирларни сурак қилишнинг психологик хусусиятлари: Автореф. дис.канд. психол. наук. –Т.,2007.–С.14; Агзамова Е.Ю. Фактори, определяющие проявления индивидуально-психологических особенностей личности сотрудников органов внутренних дел: дис.канд. психол. наук.- Т., 2001.–С.63; Арифходжаева И.Х. Ички ишлар идоралари сержантлар таркиби фаолиятини такомиллаштиришнинг психологик омиллари. Дис. канд. психол. наук. Т., 2011. – С.71; Эргашев И.Р. Психология профессионального общения следователя с участниками предварительного следствия: Автореф. дис. канд. психол. наук. – Т., 2001. –С.17.

³Абраменкова В. В. Социальная психология/ учебное пособие. М. : ПЕРСЭ, 2008. – С.128.

jarayonida, ya'ni boshqalar bilan psixologik muloqot o'rnatish vaziyatida, quyidagilarga amal qilishi lozim⁴:

aloqani yo'naltirish va rejalashtirish bosqichi – ekstremal vaziyatni tushunish, muloqotni rejalashtirish;

muloqotni amalga oshirish bosqichi – ishonch, mantiq, suhbatning ahamiyati, rag'batlantirish hamda maxsus muloqot usullaridan foydala olish;

o'zaro ta'sirni nazorat qilish va kerak bo'lsa, uni tuzatish, ayni paytdagi xulq-tvorni tushuna bilish va uni baholay olish. Tasnif etilgan mazkur muloqotni tashkil etish bosqichlari, o'ziga xos mazmuni ifodalab, u puxta o'zlashtirish har qanday holatda samarali aloqa qilishning shartlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar boshqalar bilan o'zaro munosatlarni o'rnatish uchun quyidagi ta'sir o'tkaza olish sifatlariga ega bo'lishlari lozim sanaladi: boshqalar e'tiborini o'ziga qarata olish, ya'ni hamdardlik qila olish, ajablanish, dolzarb muammo va hodisalar yuzasidan fikr bildira olish hamda kutilmagan hazillar qila olish; sohaga oid axborotlar va ma'lumotlardan oqilona foydalana olish, ya'ni muammolar yuzasidan farazlar ilgari surish, vaziyatlarni tushuntira bilish, boshqalarga ko'rsatma va takliflar bera olish; bahslasha olish; o'z takliflarini bayon eta olish va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar samarali faoliyat olib borish uchun, quyidagi kommunikativ sifatlarga ega bo'lishlari lozim⁵:

moslashuvchanlik;

odamlar bilan ishlash qobiliyati;

rahbarlik qilish qobiliyati;

yuqori darajadagi sosial intellekta ega bo'lish;

xayrixohlik, bo'ysunuvchilarni tushuna olish qobiliyati.

Muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida subyektiv kechinmalar va o'zaro munosabatlar, safdoshlar bilan birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida bir-biriga ta'sir qilishning tabiati va usullarida obyektiv ravishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, muddatli harbiy xizmatchilar bir-biriga o'zro ta'sir ko'rsatgan holatdagina shaxslararo munosabatlar paydo bo'lishiga ishora qilmoqda. Tadqiqotchi L.I.Bojovichning fikriga ko'ra, shaxslararo munosabatlardagi yaqinlik birinchi navbatda tashqi muhitga bog'liq sanaladi. Shaxslararo munosabatlari qanday rivojlanishi va o'zgarishini aynan ana shu omilga bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga, muddatli harbiy xizmatchilar bir-birlari bilan aloqada bo'lish prinsipiga ko'ra do'stdirlar, ya'ni ular bitta xonada ishlashadi, vazifalari nuqtai nazaridan ham biri birlariga yaqindir⁶. Muddatli harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar birgalikdagi mashg'ulotlar jarayonida shakllanadi. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shaxsiy rivojlanishi va faoliyatiga ta'sir qiladi. Shuningdek, safdoshlari bilan shaxslararo munosabatlar uning harbiy muvaffaqiyatidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda shaxslarning ijtimoiy ongiga ta'sir ko'rsatuvchi turli faktorlar mavjudki, bu holat ular bilan shaxslararo munosabatga kirishishni murakkablashtirishi mumkin.

Muddatli harbiy xizmatchilar o'z xizmat faoliyatidan kelib chiqqan holda har doim kim bo'lishidan qat'iy nazar konstruktiv munosabatlarni o'rnatishi talab etiladi. Tadqiqotchi I.A.Kalinichenkoning ta'kidicha, muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda jamoa yoki guruhdagi nizoli vaziyatlarni e'tiborga olish juda muhim sanaladi. Ya'ni, jamoada nizoli vaziyat, yomon kayfiyat xodimlarning bir-biriga nisbatan hurmati, samimiyligi bo'lmasa bunday holatda faqat destruktiv shaxslararo munosabatlar kuzatilishi

⁴Еникеев М. И. Юридическая психология. С основами общей и социальной психологии. Учебник – 2-е изд. – М.: Инфра-М, 2016. – С.65.

⁵Самовичев Е.Г. Психология оперативно-розискной деятельности: Энциклопедия юридической психологии / Е.Г. Самовичев. Под общ. Ред. проф. А.М. Столяренко. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2003. – С.66.

⁶Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. Самара: Питер, 2009. – С.221.

mumkin⁷. Bu holat muddatli harbiy xizmatchilarning birinchi navbatda o'zi, harbiy jamoasi, yaqinlari va safdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlariga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun nizoli vaziyatlarni oldini olish va konstruktiv shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga doir izlanishlar tahlili juda muhim sanaladi. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning yana bir o'ziga xususiyati sifatida, jamodagi komandirning roli alohida ahamiyatga egadir. Har bir jamoa faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to'g'ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog'liq. Boshqacha aytganda, xizmatning qanday tashkil etilishi komandirlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog'liq. Tadqiqotchi Ya.L.Kolominskiyning e'tirof etishicha, muddatli harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat faoliyati bilan shug'ullanish jarayonida eng asosiysi o'ziga, uning muvaffaqiyati va farovonligiga qaratilgan qadriyatlardir. Shuningdek, yangi munosabatlar, yangi jamoaga qo'shilish, yangi turdagi faoliyat bilan ajralib turadi. Bularning barchasi mas'uliyat doirasining kengayishiga, xarakterning, irodaning shakllanishiga, shaxslararo munosabatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi⁸. Demak, muddatli harbiy xizmatchilar jamoaga qo'shilganda yoki biror notanish ish bilan mashg'ul bo'lganda shaxslararo munosabatlar darhol paydo bo'lmaydi, muddatli harbiy xizmatchilar uchun noma'lum bo'lgan voqelikda yangi taassurotlar juda ko'p bo'lganligi uchun shaxslararo munosabatlar deyarli sezilmaydi

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida Stefanson tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxsning o'z-o'zini baholash" so'rovnomasi, Sh.Mishekning "Xarakter aksentuasiyasi" so'rovnomasi, Tomsonning "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi va Liri-Sobchiklar tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxslararo munosabatlarni o'rganish" kabi so'rovnomalardan, ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik-statistika metodlari, Studentning t - mezoni hamda K.Pirsonning r - korrelyasiya koeffitsiyenti usullardan foydalanilgan.

Empirik natijalar. Tadqiqotimizda muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shakllanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish uchun Stefanson tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxsning o'z-o'zini baholash" so'rovnomasi, Tomsonning "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi va Liri-Sobchiklar tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxslararo munosabatlarni o'rganish" kabi so'rovnomalardan foydalandik.

Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni o'rganish so'rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o'rtacha qiymati	shkalaning dispersiya qiymati	shkalaning korrelyasiyasi	Shkalaning α -koeffitsiyenti
Xukmron-liderlik	7	8	0,58	0,65
Mustaqil	6	7	0,51	0,58
Tajovuzkor	6	7	0,48	0,55

⁷ Психология в деятельности сотрудников органов внутренних дел: Учебное пособие / Под ред. Калиниченко И.А.. - М.: Юнити, 2015. - С.66.

⁸ Коломинский Я.Л. Социальная психология взаимоотношений в малых группах. Учебное пособие для психологов, педагогов, социологов. М.: АСТ, 2010. - С.112.

Ishonchsizlik	7	8	0,52	0,63
Tortinchoqlik	6	7	0,49	0,60
Bo'ysunuvchanlik	4	5	0,37	0,46
Hamkorlik	6	7	0,50	0,62
Mas'uliyatlilik	6	7	0,48	0,58
Alpha (α) koeffitsiyenti				0,62

**Muddatli harbiy xizmatchilarda o'z-o'zini baholash
so'rovnomasining natijalari**

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o'rtacha qiymati	shkalaning dispersiya qiymati	shkalaning korrelyatsiyasi	Shkalaning α - koeffitsiyenti
tobe	6,06	7,36	0,32	0,56
mustaqil	6,39	7,58	0,38	0,64
kirishimli	6,57	6,04	0,41	0,72
odamovi	6,59	7,16	0,43	0,75
kurashuvchi	6,42	6,56	0,40	0,68
kurashdan qochuvchi	6,45	7,92	0,41	0,71
Alpha (α) koeffitsiyenti				0,68

Muhokama. Muddatli harbiy xizmatchilarning shaxslararo munosabatlar va shaxs xususiyatlari so'rovnomalari natijalari faktorli analiz bo'yicha ko'rsatkichlar 2 ta faktorga birlashgan. Birinchi faktorga hukmron-liderlik, mustaqil, hamkorlik, mas'uliyatlilik, hamkorlik va kelishuvchanlik kabi xususiyatlar birlashgan. Ikkinchi faktorga tajovuzkor, ishonchsizlik, tortinchoqlik, bo'sunuvchanlik, raqobatlilik, tortishuvdan qochish va moslashuvchanlik kabi faktorlar birlashgan. Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlarni o'lchashga qaratilgan so'rovnomalarda umumiy o'rta darajada ularda shaxslararo munosabatlar shakllanganligidan darak beradi.

Xulosa. Mavzu yuzasidan o'rganilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Shaxslararo munosabatlar – muddatli harbiy xizmatchilarga tegishli real hayotiy fikrlash va his qilish shaxslari o'rtasida rivojlanadigan bevosita aloqalar va munosabatlardir. Boshqacha qilib aytganda, bu haqiqiy shaxslarning haqiqiy muloqotidagi empirik munosabatlar, odamlarning o'zaro munosabatlarining o'ziga xos turi, bu to'g'ridan-to'g'ri (yoki bilvosita, masalan, texnik vositalardan foydalanib) muloqot qilish imkoniyatini beradi;

Muddatli harbiy xizmatchilarda shaxslararo munosabatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga shaxsning o'z-o'zini baholashi, xarakter aksentuatsiyasi, shaxs xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar kabi psixologik omillar ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абраменкова В. В. Социальная психология/ учебное пособие. М. : ПЕРСЭ, 2008.
2. Еникеев М. И. Юридическая психология. С основами общей и социальной психологии. Учебник – 2-е изд. – М.: Инфра-М, 2016.
3. Самовичев Е.Г. Психология оперативно-розыскной деятельности: Энциклопедия юридической психологии / Е.Г. Самовичев. Под общ. Ред. проф. А.М. Столяренко. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2003.
4. Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. Самара: Питер, 2009.
5. Шеламова Г.М. Деловая культура и психология общения: Учебник / Г.М. Шеламова. - М.: Academia, 2016.
6. Психология в деятельности сотрудников органов внутренних дел: Учебное пособие / Под ред. Калиниченко И.А.. - М.: Юнити, 2015
7. Коломинский Я.Л. Социальная психология взаимоотношений в малых группах. Учебное пособие для психологов, педагогов, социологов. М.: АСТ, 2010

